

BOLALARNI USTOZ BILGAN USTOZIM

Zafar Mamatalimov

Alfraganus University dotsenti

Goh xalq og‘zaki ijodi “bog‘i”da, goh mumtoz adabiyot bag‘rida bolalar kitobxonligi shaklida yashab kelgan, o‘tgan asr boshlarida alohida estetik hodisa sifatida paydo bo‘lgan bolalar adabiyoti namunalari, o‘z navbatida, munosib baho – tadqiq etishni ham talab eta boshladi.

Vaqtli matbuotda jadid bobokalonlarimizning “usuli savtiya” maktablari uchun o‘quv qo‘llanma, darsliklar yaratish asnosida ijod qilgan turli xil she‘rlari, topishmoq, ertak, kichik hikoya, dostonu masallari; jahon bolalar adabiyotidan qilingan tarjimalar va ular ta‘sirida yaratilgan she‘riy ertaklar xususida dastlabki mulohazalar ko‘zga tashlana bordi. Bu davrda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Elbek, Shokir Sulaymon, G‘ozi Olim Yunusov singari ziyolilar *katta avlod* vakillari sifatida kichkintoylar adabiyotini o‘rganish bilan shug‘ullana boshladilar. 30-40-yillarda o‘zbek bolalar adabiyoti ham mavzu, ham janr nuqtayi nazaridan boyidi. Bu G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Hamid Olimjon, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiylarning adabiyotga kirib kelishi, bolalik olami bilan bog‘liq xotiralar, go‘zal tasavvur, tashbeh va tasvir hamohangligida yaratilgan poetik ifodalar kashshofi sifatida iqtidorlarini namoyon eta olganlari bilan izohlanadi. O‘z-o‘zidan, yillar o‘tgan sayin tadqiqotchilar auditoriyasi, o‘rganiladigan muammolar qamrovi ham kengayib bordi. Natijada, A.Suyumov, I.Ahmedov, P.Shermuhammedov, J.Tursunov, O.Safarov kabi *o‘rta avlod* vakillari maydonga chiqishdi. Urushdan keyingi yillar, ayniqsa, 70-80-yillarda bolalar adabiyotining “ob-havo”si Po‘lat Mo‘min, Miraziz A‘zam, X.To‘xtaboyev, T. Adashboyev, Anvar Obidjon, Safar Barnoyev asarlari ta‘sirida yangilangan bo‘lsa, istiqloq yillarida X.Komilov, H.Imonberdiyev, Q.O‘tayev, K.Turdiyeva, U.Abduazimova, Abdurahmon Akbar, Z.Mo‘minova, Rustam Nazar, Erpo‘lat Baxt, Dilshod Rajab, Zikrilla Ne‘mat, Orif To‘xtash, Zafar Isomiddinlar ijodiy tajribalari bois tubdan yangicha qiyofa kasb etdi. Mazkur yillarda B.Imomov, S.Matchonov, M.Jumaboyev, A.Rasulov, Q.Qahramonov, R.Barakayev, K.Turdiyeva, Z.Isomiddinov, Z.Ibrohimova, B.Ashurovlardek adabiyotimiz to‘plagan tajriba – yutuq va kamchiliklarga yetarlicha munosabat bildirishga bel bog‘lagan munaqqidlarning *kenja avlodi* yetishib chiqdi. Biz maqolamizda bugun qutlug‘ 70 yoshni qarshilayotgan, o‘zbek bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi, rivojlanishi, taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qilishga butun umrini baxshida etib kelayotgan ajoyib olim, filologiya fanlari

nomzodi, professor Rahmatulla Barakayev hayoti va ijod yo‘liga bir nazar solishni lozim topdik.

Rahmatulla Barakayev 1954-yil 1-fevralda Buxoro viloyatining Vobkent tumanida tavallud topdi. U kishining otalari Baraka bobo madrasa ko‘rgan, shu boisdan ham, ayniqsa, mumtoz adabiyotni juda yaxshi bilgan inson bo‘lganlar. Baraka bobo bilan Shofirkonda, nevaralari uylanish to‘yida uchrashib, ularning davradagi har bir holatni o‘ziga xos tarzda Jaloliddin Rumiy, Sa‘diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrablarning mumtoz turkiyu forsiy she‘riyatidan parchalar bilan izohlaydigan mulla boboning savqi tabiiylariga qoyil qolgan atoqli navoiyshunos olimi Suyima G‘aniyeva: “Men Rahmatulla adabiyotshunoslikka qayerdan qiziqib qolgan desam, buning asosiy sababi mulla Baraka bobo ekanlar-ku” degan ekanlar.

XX asrning 60-yillaridagi oddiy qishloq maktabida tahsil olgan Rahmatullaning boshlang‘ich sinfdanoq badiiy adabiyotga juda mehr qo‘yishiga dastlabki o‘qituvchisi Muhabbat opa Olimova sababchi bo‘lgan ekanlar. Shunday muallimu muallimalar mehri muhabbati sababli u ham ona tili va adabiyoti bo‘lishga qaror qiladi. Mehribon ustozlarning undovi, ota-onasining qo‘llab-quvvatlovi uni Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti)ga yetakladi. Institutda N.Mallayev, A.Alimuhamedov, M.Asqarova, T.Boboyev singari o‘z sohasining yetakchi olimlaridan olgan tahsillari uning bu sohadagi qiziqishini yanada oshiradi. Shogirdining adabiyotga qiziqishi nihoyatda yuqoriligini sezib qolgan taniqli navoiyshunos olim N.Mallayev uni 4-bosqichda o‘qib yurgan paytidayoq kafedra huzuridagi “Alisher Navoiy” o‘quv muzeyiga ishga oladi. 1975-yil aprelida R.Barakayev Namangan shahrida bo‘lib o‘tgan respublika olimpiadasida “Navoiy g‘azallarida badiiy san’atlar” mavzuidagi ma’ruza bilan qatnashib, g‘oliblikni qo‘lga kiritadi. U o‘qishni tugallaganidan keyin 1975-1980-yillarda Buxoro viloyatining Vobkent tumanida maktab o‘qituvchisi, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, tuman xalq ta’limi bo‘limi metodisti vazifalarida ishlaydi.

Lekin ilmga bo‘lgan qiziqishi uni baribir Toshkentga tortaveradi va 1980-yilgi mehnat ta’tili paytida Toshkentga, Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga kelib, o‘zidan bir bosqich avval institutni tugallagan do‘sti Q.Qahramonovdan “Bolalar adabiyoti” bo‘limida bir laborant o‘rni bo‘shligini bilib oladi. Q.Qahramonov uni o‘sha paytdagi bo‘lim mudirasi, yoshlarga juda mehri baland Malohatxon Abdurahmonova huzuriga olib kiradi. Rahmatullaning eski yozuvni bilishi, mumtoz adabiyotga qiziqishi balandligini sezgan opa bo‘limda bolalar adabiyotining 1917-yildan oldingi davrdagi holatini biladigan mutaxassis yo‘qligini aytib, XX asr boshlari davri bo‘yicha ilmiy izlanish olib borishga da’vat

qiladi va shu paytning o‘zidayoq “O‘zbek adabiyoti tarixi” bo‘limining mudiri, mashhur navoiyshunos olim A.Hayitmetov suhbatiga olib kirib, domlaga tanishtiradi, ulardan ilmiy rahbar bo‘lish roziligini ham oladi. Shu bilan R.Barakayevning Til va adabiyot institutidagi faoliyati boshlanadi.

U 1980-yil okyabridan institutda laborant sifatida ish boshladi. Keyinchalik katta laborant, stajyor-tadqiqotchi, kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim, katta ilmiy xodim lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1994-yilda mazkur institut huzuridagi Ilmiy kengashda 10.01.03 – O‘zbek adabiyoti tarixi ixtisosligi bo‘yicha “XX asr boshlari o‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

U 1994-yildan 2018-yilgacha institutining ilmiy kotibi vazifasida ishladi. 2018-yildan O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo‘limi mudiri, 2021-yildan katta ilmiy xodim lavozimida ishlab kelmoqda. 2022-yilda professor ilmiy unvonini oldi.

R.Barakayev ilmiy izlanishlari o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti, adabiy aloqalar va tarjimashunoslik, xususan, o‘zbek bolalar adabiyoti yo‘nalishlarida bo‘lib, ular 10 dan ortiq monografiya va risolalarda, 300 ga yaqin ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarda o‘z aksini topgan. Olim 60 dan ortiq respublika va 20 dan ortiq xorijiy anjumanlarda ilmiy ma’ruzalar bilan ishtirok etgan.

“Bobolardan bolalarga” (1988), “Jonajonim, she’riyat” (1997), “O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi” (2004), hammualliflikda chop etilgan “Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar” (2014; qayta nashr: 2017); “Badiiy tasvir mahorati” (2021) singari monografiyalari ilm ahli – adabiyot muhiblariga manzur bo‘ldi. Hatto “Jonajonim, she’riyat” kitobi O‘zR davlat Matbuot qo‘mitasining “Bolalar uchun yozilgan eng yaxshi asarlar” tanlovi g‘olibi ham bo‘ldi. O.Safarov, B.Jamilova bilan hamkorlikda tayyorlangan “Bolalar adabiyoti” darsligi (2019; qayta nashrlar: 2021; 2022) bir necha yildirki, oliy o‘quv yurtlarida darslik sifatida o‘qitib kelinayotgan bo‘lsa, R.Barakayev tomonidan so‘ngso‘z va lug‘atlar bilan nashrga tayyorlangan Abdulla Avloniy qalamiga mansub “Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom” asari “Abdulla Avloniy hayot va ijodi” modulini talaba-yoshlarga o‘rgatishda qo‘shimcha manba sifatida foydalanilmoqda.

Mashhur qozoq ma’rifatparvari Abay Qo‘nonboyev “Naqliya so‘zlar” asarida uch toifa kishi (g‘ayratsiz johil, qayg‘usiz oshiq, shogirdsiz olim)ni tulga qiyoslaydi. Darhaqiqat, olimning mavqei, darajasi u yaratgan kashfiyotlar, kitoblari, yetishtirgan shogirdlari bilan belgilanadi. Hozirga qadar R.Barakayev ilmiy rahbarligida 3 nafar filologiya fanlari nomzodi va 5 nafar filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori tayyorlangan bo‘lsa, bugungi kunda uning ilmiy rahbarligida 2 nafar

tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi ustida ish olib bormoqda.

Rahmatulla Barakayev adabiyotshunos olim va adabiy tanqidchi o‘laroq O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashi a‘zosi, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengash ilmiy kotibi, Dsc.02/30.12.2019.Fil.46.01 raqamli ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar a‘zosi, “O‘zbek tili va adabiyoti” va “Adabiy meros” jurnallari tahrir hay‘ati a‘zosi sifatida jamoatchilik ishlarida ham faol ishtirok etib kelmoqda.

R.Barakayev bolalar adabiyoti sohasidagi tadqiqotlari uchun 2000-yilda 2-darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Ustoz turmush o‘rtog‘i Farog‘at aya bilan to‘rt nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdi. O‘qitdi. Oliy ma‘lumot olishlariga zamin yaratdi. Hozirda ular respublikamizning fan, ta‘lim, iqtisodiyot kabi turli jabhalarida mehnat qilmoqdalar. “Danagidan mag‘zi shirin” nevaralar ham sport, fan sohalarida qo‘lga kiritayotgan yutuqlari bilan bobosiyu buvisini xursand qilib kelishmoqda.